

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODLARI

Jo‘rayeva Mahliyo Mirzoyevna

Buxoro davlat Pedagogika instituti

II bosqich magistri.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarini ta’limiy o‘yinlar asosida tashkil qilish masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ona tili darslarida kompitensiyalar, ta’lim, zamonaviy texnologiya, metod, tafakkur, taraqqiyot, fenomen, interfaol va hokazo.

Yangilangan ona tili ta’limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy ona tili o‘qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi: so‘z boyligini oshirish va boyitish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo‘lish. Ta’lim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhash, umumlashtirish, ular orasidan nutqiy vaziyatga mosini tanlash va o‘z nutqida qo‘llash kabi aqliy faoliyat usullari o‘quvchidagi diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi ruhiy xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qiyinchiliklardan qo‘rmaslik, uni mustaqil bartaraf etish, madaniy muloqot kabi ijobiy xislatlarning paydo bo‘lishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etildi. Ona tili ta’limi mazmunining yangilanishi, til o‘qitish metodikasining oldiga ham dolzarb masalalarni qo‘ydi. Ona tili darslarida til va tafakkur munosabati haqida ma’lumot berish o‘quvchilarning til haqidagi bilimlarini kengaytirishga, zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan quollantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, innovatsion va interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi, o‘quvchilar guruhi, shuningdek,

jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror to Bugungi kunning o‘qituvchisi yosh avlodni tarbiyalashda zamon bilan hamnafas ish olib borishi, ta’lim jarayoniga yangicha pedagogik texnologiyalarni qo‘llab yosh avlodni muloqot madaniyati shakllangan, tanqidiy - tahliliy fikrlovchi ruhda tarbiyalashi kerak bo‘ladi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda biz, mazkur maqolamizda o‘quvchi yoshlarni muloqot hamda muomala madaniyatini shakllantirishda, ularni o‘z fikrlarini erkin tarzda bayon qilishda,, kommunikativ kompetensiya” ning o‘rni, uning ta’limdagi ahamiyati haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida shakllanadigan o‘quvchining shaxsiy sifati; ikkinchidan, nutqiy muloqot maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, xususiyatlari to‘g‘risida o‘quvchining xabardorligi ko‘rsatkichi; tegishli texnologiyani bilish darajasi; mutaxassisning individual psixologik fazilatları; aloqa faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intilish; inson shaxsiyatiga yo‘naltirish, asosiy qadriyat sifatida, shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nostandard, ijodiy hal qilish qobiliyati. Nutqiy muloqot o‘quvchining kommunikativ kompetensiyasining asosiy qismidir, u har doim hamjamiyatni, o‘xshashlikni, o‘zgalarni anglash va qabul qilishga bo‘lgan o‘zaro intilishni, nafaqat oqilona o‘lchash va javob berish, balki hissiyot bilan hamandard bo‘lishni nazarda tutadi. Ona tili ta’limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo‘yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi va kamoloti uning jamiyatda muloqot qilishi hamda tanqidiy - tahliliy fikrashi bilan baholanadi. Hozirgi vaqtida mana shu masalaga alohida e’tibor berilmoqda. Zeroki yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko‘nikmalari hamda og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, ularni milliy qadriyatlarmiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan bir paytda bu fanning o‘qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda fanga oid

kompetensiyalarni shakllantirishdan tashqari tayanch kompetensiyalarni ham qaror toptirish muhim hisoblanadi. G‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Ona tili va adabiyot fanlari dastur va darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, umumta’lim tizimida o‘qitiluvchi barcha fanlar xronologiyasi bir-biriga mutanosib ekanligini kuzatdik. Bu esa o‘z navbatida o‘qitishga yangicha yondashuvni tatbiq etishga monanddir. Ona tili va adabiyot fanining uzviy aloqadorligi bois o‘qitilayotgan mavzular ham mutanosib bo‘lishi lozim. Milliy dastur talabiga ko‘ra umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fanidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar uch yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Birinchi ko‘rsatkich o‘qish texnikasi bo‘lib, bu orqali o‘quvchining notanish matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi.

Ikkinci ko‘rsatkich o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bo‘lib, bu talab bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan fikrni hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Uchinchi ko‘rsatkich esa fikrni yozma shaklda bayon etish malakasidir. Ta’kidlash lozimki, ona tili ta’limining maqsadi shu yo‘nalishda mujassamlashadi. Darsni darslikka asoslanib tashkil etish degani darslikda berilgan o‘quv topshiriqlaridangina foydalanishi anglatmaydi, albatta. O‘qituvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ya’ni zarurat tug‘ilganda mashq shartiga qo‘srimcha shartlar kiritishi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtirishi, lozim topsa, darslikdagi mashq o‘rnida o‘zi tuzgan mashqdan foydalanishi mumkin. Darslik materialiga yordamchi vosita sifatida turli jadvallardan, rasmi li albomlar va tarqatma materiallardan, diapositiv va diafilmlardan, ovozni yozib olish vositalaridan foydalanish mumkin. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o‘yinlari davomida kuzatish qulaydir. O‘z o‘yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks

ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o‘yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yinidagi har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yining umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yini, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariiga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. *RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.
2. Ahmadovich K. H., Bahriiddinovna S. G. *Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research.* – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.
3. Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. *THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje.* – 2022. – T. 25. – C. 133-137.
4. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. *Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research.* – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.

5. *BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 415-417.
6. *Хаитов X. Адабиётда кулгидан фойдаланиши анъанасининг асослари //Общество и инновации.* – 2021. – T. 2. – №. 3/S. – C. 49-52.
7. *Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука.* – 2021. – №. 17-4. – C. 51-52.
8. *Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука.* – 2020. – №. 12-3. – C. 72-73.
9. *Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research.* – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 1-4.
10. *Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research.* – 2022. – T. 1. – №. 2. – C. 140-144.
11. *Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.
12. *Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOOGS jurnali.* – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 281-285.
13. *Ҳайитов X. A. FAФУР ФУЛОМНИНГ ҲАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences.* – 2021. – T. 2. – №. 3. – C. 679-687.
14. *Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL.* – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1562-1565.
15. *Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education.* – T. 3. – №. 4. – C. 59-63.